



HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI

Matyusupov Alisher Erkinbayevich

Harbiy qism xizmatchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada harbiylarning kreativ qobiliyatlari, ijodkorlik iste'dod darajasi, an'anaviylik yoki odat tusiga kirgan fikrlash sxemasidan uzoq bo'lgan, prinsipial yangi g'oyalarni yaratishga tayyorlikni xarakterlovchi, shuningdek, muammolarni o'zgacha tarzda bartaraf etish, iqtidorning mustaqil faktori sifatida qabul qilingan ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan materiallar yoritilgan. Shuningdek maqolada harbiy ta'lim haqida ilmiy fikrlar, faktlar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *kreativlik, qobiliyat, ijodkorlik, iste'dod, individ, an'anaviy, prinsip, mustaqil faktor, raqobatbardosh, pedagogika, madaniyat, tadqiqot, ta'lim, harbiy pedagogika, o'quv, mashg'ulot.*

Аннотация: *В данной статье творческие способности военнослужащих, уровень креативности, характеризующий готовность к созданию принципиально новых идей, далеких от традиционной или привычной схемы мышления, а также к решению задач особым образом, креативность рассматривается как самостоятельная освещаются материалы фактора таланта, направленные на развитие способностей. В статье также представлены научные мнения и факты о военном образовании.*

Ключевые слова: *креативность, способность, творчество, личность, традиционный, принцип, талант, самостоятельный фактор, конкурентоспособность, педагогика, культура, исследование, воспитание, военная педагогика, обучение, обучение.*

Abstract: *In this article, the creative abilities of the military, the level of creativity, characterizing the readiness to create fundamentally new ideas far from the traditional or habitual thinking scheme, as well as solving problems in a special way, creativity considered as an independent factor of talent materials aimed at developing abilities are covered. The article also presents scientific opinions and facts about military education.*

Key words: *creativity, ability, creativity, talent, individual, traditional, principle, independent factor, competitive, pedagogy, culture, research, education, military pedagogy, training, training.*

Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirishi va kreativ qobiliyatini takomillashtirishning innovatsion modullari amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

2030 yilgacha mo'ljallangan Yuneskonning Inchxon deklaratsiyasida "Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof berilib malakali mutaxassislarning kasbiy kompetentligini oshirish kreativlik va nostandart tafakkur



tarzi bilan bog'liq sifatlarni aniqlash, ta'lim tizimida shaxsning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalarni amaliyotga tadbiiq etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jahonda ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida, ta'limga kreativ yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, harbiylarda kreativ sifatlarni rivojlantirish, bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek oliy ta'limning sifati ta'minlash, tashkiliy-didaktik loyihalashtirishni amalga oshirish innovatsion-interaktiv texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli kitobida "Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalari va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz" degan edilar. Kreativlik va bilim o'rtasidagi yaqin aloqani ko'rsatadigan mamlakatimiz va chet el olimlari tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Kreativlik tushunchasi birinchi bo'lib amerika va yevropa olimlari tomonidan tadbiiq e'tilgan. Kreativlik va shaxs kreativligini rivojlantirish masalalari Ray M.Simpson tomonidan tayanch tushuncha sifatida ilk marta 1992-yil AQSHda qo'llanilgan bo'lsa, birinchi nazariy va amaliy tadqiqotlar amerikalik psixolog J.P.Guilfordga tegishli. U 1959-yilda "kreativlik" atamasini kiritgan, uni tafakkurning alohida turi - muammoni hal qilishning ko'plab usullarini ta'minlaydigan, kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladigan divergent fikrlash deb atagan. Bunday fikrlash yagona to'g'ri yechimga qaratilgan konvergent bilan taqqoslanadi. Konvergent (lotincha convergere - bir yo'ldan) tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi. Muammoni guruhli yechishda ishlatiladigan fikrlash aqliy hujum deb ataladi. Sh.X.Pozilova esa kreativlik deganda tinglovchilarning nostandart fikrlashi natijasida yangi, original g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati, "kreativ o'qitish" esa, pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ijodiy munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi kreativ jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi deb ta'riflaydi.

Ta'lim jarayoniga nisbatan kreativ yondashuv ta'lim olish, o'quv fanlarining asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqish, harbiylar bilan ishlash, qiziqarli, jo'shqin muloqotga kirishish, ularni bilim olish uchun faollikka undash uchun ham qo'llaniladi. Demak, harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishning muhim sharti mashg'ulot paytida ijodkorlik muhitini yaratishdir, chunki bu holda faqat turli xil o'quv faoliyatida qobiliyatlarni namoyon etish imkoniyati mavjud. Harbiy ta'lim berish sharoitida kreativ shaxs bo'lish uchun harbiy ta'lim fakultetlari harbiylari Davlat Ta'lim Standarti va Harbiy ta'lim fakultetlari malaka talablarida taqdim etilgan zarur va yetarli darajada bilim, ko'nikma va malaka hamda qobiliyatga, yuqori motivatsiyaga ega bo'lishi,



o'rganish va ijodiy faoliyatga qiziqish ko'rsatishi, o'ziga xosligi va fikrlash ravonligini namoyon qilishi kerak. Ta'lim muhitining asosiy elementi ma'naviy va axloqiy tarbiya hisoblanadi. Bunda harbiylar o'z-o'zini tarbiyalashlari lozim bo'ladi bunda bir qator prinsiplar ilgari suriladi:

Ta'lim muhiti, birinchi navbatda jamoaviy muhit;

Kadrlar bilan munosabatlarning huquqiy normalar va qonunlarga asoslangan subyektiv tabiati;

Ta'lim tadbirlarining muvofiqligi va aniqligi;

Ta'lim tadbirlarining uzluksizligi va muvofiqlashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z nutqida "...mamlakatimiz mudofaa tizimining tashkiliy tuzilmasi, uning harbiy-jangovar holati, harbiylarning ma'naviy va ruhiy tayyorgarlik darajasi bugungi tez o'zgarayotgan davr talablaridan ortda qolayotganini qayd etish lozim. O'tgan qisqa davrda milliy armiyamizni isloh qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinib, Qurolli Kuchlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish jarayoni boshlandi. Ayni paytda mudofaa sohasida oldimizda yangi va muhim vazifalar turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Davlatimizning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, armiyamizning jangovar qudrati va salohiyatini oshirish ham eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi" - deb ta'kidlagandi. Harbiy xizmatchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilish, kelajak avlodni tarbiyalashdagi o'ta muhim, mashaqqatli va sharaflil vazifani har tomonlama munosib shaxslar qo'lga topshirish kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda harbiy xizmatchilar va ularni tarbiyalaydigan harbiylarni tanlab olishda zamon talablariga to'la javob bera oladigan, ilmiy asoslangan psixologik omillarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Mamlakatimiz mudofaasini, aholining tinch-osuda hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlash va shu asnoda eng muhimi, suverenitetimiz, hududimiz mustahkamligini ta'minlash dolzarb harbiy strategik masalalardan hisoblanadi. Jamiyatdagi integratsiyalashuv jarayonining faollashuvi harbiy salohiyat nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, uning asosida aniq bir siyosatning g'oyalari ifodalanganini anglash qiyin emas. Bu holat o'z navbatida Vatan himoyachisi deb nomlangan: - harbiylikni kasb sifatida tanlaganlarni yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashni taqozo etadi. "Ta'lim va jamiyat", "Ta'lim va davlat", "Davlat va shaxs", "Ta'lim va harbiy xizmatchi", "Ta'lim va Qurolli Kuchlar" kabi kategoriyalarning bir-biriga o'zaro ta'siri va uyg'unlashuvi, mamlakat fuqarolarining yangi avlodini shakllantirishda ularning mavjud bo'lishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da aniq belgilangan. Harbiy ta'lim tizimi jamiyatdan tashqarida mavjud emas va mavjud bo'lishi mumkin emas, u umumiy ta'limning ajralmas bo'lagi bo'lib, o'ziga xos "jamiyat ko'zgusi", uning davomi va ajralmas qismi hisoblanadi. Shunday ekan, harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirishga, harbiy ta'lim sohasidagi o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashga, ularni zamon talabidan kelib chiqib ilg'or texnika va jihozlar, zamonaviy o'quv - uslubiy metodologik qo'llanmalar va ta'lim texnologiyalari



bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratib, harbiylarning g'oyaviy, harbiy psixologik va intellektual tayyorgarlik darajasiga alohida ahamiyat qaratish zarurdir. Armiya jamiyatning ajralmas qismi hisoblanib, uni davr talabi hamda jahon va mintaqadagi mavjud harbiy-strategik vaziyatlar xarakteridan kelib chiqqan holda mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarga qat'iy muvofiqlashtirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bugungi kun harbiy xizmatchisidan talab etiladigan o'zini har qanday sharoit va holatda psixologik jihatdan boshqara olish, zamonaviy to'qnashuvlarga dosh berish immunitetini shakllantirish kabi sifatning yetakchi o'rinni egallashini hisobga olib harbiy psixologiyani harbiy ta'lim sohasida o'qitishning texnologiyasi va metodologiyasining yangi avlodini yaratish lozim. Harbiy pedagogik jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni:

ta'lim ishining amaliy xarakteri, uning rasmiy faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi;

harbiy xizmatchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi;

harbiy pedagogik jarayonning amaliy asosi sifatida shaxsiy tarkibni tayyorlash;

yuqori texnik jihozlar; o'quv va tarbiyaviy ishlarning intensiv xarakteri, uni jangga yaqin muhitda olib borish;

harbiy pedagogik jarayonni umumiy harbiy va jangovar qoidalar, qo'llanmalar talablariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish;

harbiy xizmatchilarni individual va jamoaviy (guruhli) o'qitish birligi;

harbiy pedagogik jarayonning ilmiy, tashkiliy va uslubiy darajalarining harbiylar korpusining pedagogik tayyorgarligi va pedagogik madaniyatiga bevosita bog'liqligi va boshqalar.

Hayot mazmunini ilmiy tushunish ham inson ham jamiyat uchun obyektiv qiymatga ega bo'lgan natijalarga amalda olib kelishi mumkin bo'lgan strategiyani ishlab chiqishdan iborat bo'lishi lozim. Zamonaviy sharoitda harbiy mutaxassislarga yangi talablar qo'yiladi, chunki aynan ularga ko'pincha yangi g'oyalarni amalda tadbiq etishni ta'minlashlari uchun nostandart vazifalarni hal qilish majburiyati yuklatiladi. Bu jarayon harbiy mutaxassislarda qiziquvchanlik, o'ziga xos g'ayratlilik, tavakkalchilik qobiliyati, yangi g'oyalarga sezgirlik va fikrlashning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Harbiy xizmatchilarda bunday ijodkorlik fazilatlarini tarbiyalash va umuman o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

1) bo'lajak harbiy mutaxassisda kreativ tafakkurni rivojlantirish;

2) yosh harbiy kadrlarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirgan o'quv jarayonining motivatsiyasiga erishish.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida kreativ tafakkur harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o'qitishning yangi ijodiy qonunlarini o'rganish va amalga oshirishda, harbiylarni tayyorlashda alohida o'rin tutadi. Shu boisdan ham kreativ tafakkur bir qator dialektik xususiyatlarga ega. Kreativ tafakkur - bu harbiy ijodiy izlanishlarning fundamental asoslari va qonunlarini, harbiy xizmatchilar va harbiy



jamoalarni ilmiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Kreativ tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarda haqiqiy ijodiy-jangovar vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Kreativ tafakkurni yuksaltirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar kuchini kuchaytirish manfaatlarida inson omilini faollashtirishning yangi usul va vositalarini izlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2018 yil 10 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev – “Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” nomli ma'ruzasi.
2. Harbiy psixologiya va pedagogika. Qo'llanma ostida. Tahrirlangan P.D. Korchemnogo, L.G. Lapteva, V.G. Mixaylovskiy. M.: “Barkamollik” nashriyot uyi, 1998 yil.
3. Davydov V.P., Fedenko N.F. Harbiy psixologiya va pedagogika asoslari: darslik. M.: Ta'lim, 1988 yil.
4. Mutsynov S.S. Jamoa va intizom: Savol-javob. M.: Harbiy nashriyot, 1989 yil.
5. Yefremov O.Y. Harbiy pedagogika. 2008 yil. 6.